

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

*Mamirova Ruxsora Hasan qizi  
Jizzax viloyati Baxmal tuman 3-maktab  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiya ya'ni, ijtimoiy aloqa ko'nikmalarini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Bunda,,, Ertak terapiya"usuli pedagoglarga asosiy vosita hisoblanadi. "Loyihalash"metodi, BBB jadvallari ham ijtimoiy faolikni oshiradi, boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqishlarini orttiradi.

**Abstract:** The development of social competence, that is, social communication skills, plays an important role in elementary school students. In this case, the "Fairytale therapy" method is the main tool for pedagogues. The "Projecting" method, BBB tables also increase social activity and increase the interest of elementary school students.

**Аннотация:** Развитие социальной компетентности, то есть навыков социального общения, играет важную роль у учащихся начальной школы. В этом случае основным инструментом педагогов является метод «Сказкотерапия». Метод «Проектирование», таблицы БББ также повышают социальную активность и повышают интерес учащихся младших классов.

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiy kompetensiya, "Loyihalash"metodi," Ertak terapiya"," BBB" jadvali, texnologiya, faollik

**Key words:** Social competence, "Design" method, "Fairy therapy", "BBB" schedule, technology, activity

**Ключевые слова:** Социальная компетентность, метод «Дизайн», «Сказочная терапия», таблица «БББ», технология, деятельность.

Ta'lim va tarbiyaning poydevori boshlang'ich ta' boshlanadi. Chunki yuqori sinf o'quvchilaridan ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori bo'ladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchlimdanilarida ijtimoiy kompetensiya(kirishimlilik) sust bo'ladi va buni shakllantirmaslik esa yuqori sinf davrida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Albatta, bunday salbiy oqibatlarni oldini olish uchun pedagogik metod va usullar yordamga keladi. Eng qiziqarli metodlardan biri "Ertak terapiya" sini ko'rib chiqamiz.

Ertak terapiyasi boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar bilan muloqot qilishning samarali usuli sifatida bir qator muammo va vazifalarni hal qilish uchun uzoq vaqt dan beri taniqli o'qituvchilar, psixologlar va bolalar bilan ishlash bo'yicha boshqa mutaxassislar tomonidan keng qo'llanib kelinadi. Odatda bu maqsadlar uchun

tarbiyaviy va terapeutik ta'sirga ega kichik xalq ertaklari yoki badiiy ertaklar ishlatiladi.

Oila bilan ishlash bo'yicha mutaxassis, ijtimoiy amaliyatchi I.V.Naumovning

"Binafsha o'rmon sirlari" mualliflik ertagi boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga, ularning jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuviga xizmat qiladi.

Ushbu texnologiyadan foydalanish maqsadga muvofiqligi shundaki, boshlang'ich maktab o'quvchilarida ertaklar katta qiziqish uyg'otadi. Ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda ertak terapiyasining vositalari o'ziga xos xususiyatlari:

- o'z-o'zini bilish va o'zini anglashga qaratilganligi;
- ertaklarning samaradorligi didaktik, axloqiy ko'rsatmalarning yo'qligi;
- aniq personifikatsiyalarining yo'qligi;
- obrazli va majoziy til;
- psixologik xavfsizlik;
- sir va sehrning mavjudligi

Mualliflik ertagidan ertak terapiyasi usuli sifatida foydalaniladigan darslar:

- bolalarning faolligi va mustaqilligini sezilarli darajada oshirishga;
- xulq-atvorni ixtiyoriy tartibga solish, yuqoriga ko'tarish;
- bilimni oshirishga faol qiziqish, faol pozitsiyani rivojlantirishga qobiliyat;
- muloqotning kommunikativ tomoni bilan bog'liq ko'rsatkichlarin yaxshilash;
- belgilangan o'z-o'zini anglashning o'sishi va ijobjiy tomon o'zgarishlar o'sishi, "rad etilgan" va "qabul qilinmagan" toifasidagi bolalarda o'z-o'zini hurmat qilishi;
- vaziyatli muammolarni hal qilish usullarini tanlashga imkon beradi.[1,277-278]

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy kompetensiyalarining navbatdagi komponenti faoliik bo'lib u quyidagilarni nazarda tutadi:

- tinglash va boshqa odamlar bilan muloqot qilish qobiliyati;
- bolalarning bir-biri bilan hamkorlik qilish, o'z harakatlarini muvofiqlashtirish va sherikning fikri bilan hisoblash qobiliyati;
- jamoada ishslash va jamoada qabul qilingan qoidalarga amal qilish qobiliyati;
- muzokaralar olib borish, umumiy yechim topish qobiliyati;
- konfliktni hal qilishning to'g'ri yo'lini topa olish qobiliyati;
- jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari muvofiq o'zini tutish qobiliyati. Ijtimoiy faolikni oshirish uchun Yo'l topuvchi" o'yini:
  - o'quvchilar qaysi hayvonning qorda iz qoldirganligini aniqlaydilar. Idrokni rivojlantirish uchun o'yin "O'zingizni qo'ying". Bu esa o'quvchilarda o'z fikrini bildirish, boshqalar fikriga qarshi fikr berish, ya'ni fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya tamoyilini shakllantiradi. [2,559]

Yana bir qiziqarli metod - BBB Jadvali - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo’lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alovida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

"Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni hohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo'limlarini to'ldiradilar.[3,14]

Loyihalash metodi. Loyihalash metodi - o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash,konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir.Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.)masalalar bilan bog`liq loyihalarni bajaradilar.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi.Loyihalash metodi orqali o'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash;jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish;tashxislash; motivatsiya.[4,12]

Yuqoridagi metod va usullar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy kompetentsiyalari oshadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Pedagogik ta'lif klasteri: muammo va yechimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения, Chirchik, Uzbekistan ;International Conference, Gulmira RIFOVNA Tojiboeva,
2. BOSHLANG'ICH MAKTAB O'QUVCHILARINING IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MUALLIFLIK ERTAKLARIDAN FOYDALANISH, 277-278-b
3. Международный научный журнал «Научный импульс» № 5 (100), часть 1 Январь, 2023, Raxmonova Mavluda Suvon qizi, BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH, 559-b
4. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI SAMARQAND VILOYAT XALQ TA'LIMI XODİMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI, J.XUDOYQULOV, O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARINI SHAKILLANTIRISH USULLARI, 14-b
5. O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI SAMARQAND VILOYAT XALQ TA'LIMI XODİMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIY MARKAZI, J.XUDOYQULOV, O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARINI SHAKILLANTIRISH USULLARI, 12-b